



O'ZBEK TILI VA UNI O'QITILISHINING MUHIM MASALALARI

Jumaniyozova Saboxat Pardayevna

Toshkent shahar Chilonzor tumani

168-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15518020>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 26th May 2025

KEYWORDS

Davlat tili, konstitutsiya, ona Vatan, Shavkat Mirziyoyev, Farmon, milliy g'oya, "Davlat tili haqida" gi qonun.

ABSTRACT

Ushbu maqola o'zbek tilini davlat tili martabasiga olib chiqish yo'llari va shu yo'ldagi harakatlar ni o'z ichiga oladi. O'zbek tilining o'rni hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat tili haqidagi qarorlari bayon etilgan.

O'zbekistonning milliy mustaqilligi hech bir istisnosiz ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo'l ochdi. Davlatimizning asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda, «Davlat tili haqida»gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda o'zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko'rsatib berilgan. Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoj-u shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamsitishlardan ezilgan, ammo yorug' kunlarga yetmoq umidi so'nmagan tilimiz chinakam munavvar kunlarga beshikast yetib keldi. Ayniqsa, bugungi kunda «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga dadil qadam qo'yayotgan mamlakatimizda barcha sohalardegidek davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish borasida ham tub burilish jarayonlari boshlandi.



Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bu borada qilinadigan keng ko'lamlil ishlarning to'laqonli tarhini chizib berar ekan, bu ishlarning natijalarini quyidagicha ifoda etdi: «Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va

sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim». Har bir fuqaroning ong-u shuurida ana shu qoidaning salomatligi va sobitligi yurt yuksalishining ham, mamlakat mustaqilligi muhofazasi muntazamligining ham garovidir. Mazkur tarixiy nutqda ta'kidlanganidek, «dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir».

Albatta, bu bebaho boylik, buyuk qadriyat milliy o'zlikning asriy ildizlari sifatida o'zbek qavmining ona tilisi sifatida o'zbekning milliy-ma'naviy dunyosini charog'on qilib tursa, davlat tili sifatida ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari qalbiga bir davlatga, bir yurtga mansublik, birdamlik tuyg'ularini joylaydi, ularni yagona davlat ramzi sanalmish bayroq, gerb, madhiya kabi muqaddas timsollar singari bir yurtning sadoqatli farzandlari o'laroq birlashtiradi. Aytish mumkinki, ana shu ma'noda o'zbek tili O'zbekistonda faqat bir emas, balki ikki ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifani bajarmoqda, ana shunday zalvorli va muazzam vazifalarni yelkasiga ortmoqlagan holda takomil yo'llaridan jadal odimlamoqda. Davlatimiz rahbari 2019-yil 21-oktyabr kuni imzolagan «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida haqli ravishda alohida qayd etganidek, «bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratishi tabiiydir». Davlatimiz rahbarining mazkur Farmonida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi hayotimizning barcha jabhalarida to'la-to'kis joriy qilinishi uchun tegishli chora-tadbirlar aniq belgilab berilgan, mazkur maqomning muntazamligi uchun davlat va boshqa tashkilotlar, fuqarolarning mas'ullik intizomi ko'rsatilgan. Aytish joizki, shu tarzda bir necha o'n yillar davomida tilimiz rivoji borasida harakatga kelolmagan mexanizmlar bugun faol va samarador harakatga kelmoqda. Ayni paytda shuni ham hech mubolag'asiz aytish joizki, bugun davlat tilining taraqqiyoti, uning nufuzini oshirish, unga teran muhabbat va ehtirom tarbiyasi borasida ham tamomila yangi bosqich boshlandi, so'z va ish birligi tamoyili rost o'zanlarda namoyon bo'la boshlamoqda. Davlatimiz rahbari tajribali tabibday tilimiz tomirlarini qo'lida tutib, uning dard-u og'riqlariga malham topmoqda, qaddini ozod ko'tarishi va emin-erkin faoliyati uchun madad berish yo'llarini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizning milliy yuksalishday ulug' va ezgu maqsadlarga erishuvida ona tili -davlat tili benazir tayanchdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz o'z nutqlarida «davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan bin bo'lishi zarur»ligini alohida uqtirdilar. O'zbek tilining ham ona tili, ham davlat tili sifatidagi taraqqiyotini ta'minlash, hech bir shubhasiz, milliy manfaatlarimiz himoyasining tamallarini tashkil etadigan muqaddas harakatlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti bugun ana shunday harakatlarning boshini qovushtirish, bu boradagi ishlarga yangicha ruh berish maqsadida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qo'llabquvvatlashi, o'zbek tilining boy ifoda imkonlarini ko'rsatadigan izohli va terminologik lug'atlarni nashr etish, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash, aslida esa har bir fuqaro qalbida davlat tiliga ehtirom tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tilidan tashqari, rasmiy ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonmi, tadbirkormi yoki ziyolimi, baribir, hech bo'lmaganda, ariza, tilxat yoki ishonchnoma yozishiga to'g'ri keladi. U yoki bu darajadagi korxonada, muassasa yoki tashkilot rahbarining faoliyatini esa ish yuritish qog'ozlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham «Davlat tili haqida»gi Qonunimizning o'zak moddalari (8-14-moddalar)da ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar katta-yu

kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni o'zbek tilining siyosiyijtimoiy maqomini ta'minladi va uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Xususan, ushbu qonunning 8, 9, 10-moddalarida hujjatlarning davlat tilida tayyorlanishi, boshqaruv organlari, muassasa, korxonalar va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi ta'kidlangan. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning o'zbek tilini milliy-ma'naviy qadriyat sifatida puxta egallashi, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay olishi, nutqiy savodxonlikka erishishi uchun hujjat matnlarini tuzish ko'nikmalari shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.M.Inagamova. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta'minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy statistik ma'lumotlar asosida). Multidisciplinary Scientific Journal.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 257-modd; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 51-son, 514-modd; 2010-y., 37-son, 313-modd; 2011-y., 41-son, 449-modd; 2017-y., 37-son, 978-modd; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
3. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 31 yilligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning nutqi. 21.10.2022
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks.

INNOVATIVE
ACADEMY